

## ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN QUROLLANTIRISH

**Moxitdinova Surayyo Akmalovna,**

*TTKI akademik litseyi informatika va AT fani o'qituvchisi,*

*moxitdinovasurayyo@gmail.com*

*Telefon: +99899 9842719*

**Annotatsiya.** O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ham yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimida to'laqonli sheriklik o'mini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish ko'lamlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligini oshishida qanday rol o'ynashiga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, axborot, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilish, kompyuter texnikasi va telekommunikatsi, Axborot oqimi.

Insonni uning axborotni qayta ishslash bo'yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish — axborotlashtirish sanoatini jadal rivojlanтирishni talab etuvchi eng muhim texnik, iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Iqtisodiyotda axborot texnologiyalaridan foydalanish iqtisodiy axborotlar sifati, uning aniqligi, obyektivligi, tezkorligini va buning natijasi sifatida esa boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish imkoniyati oshishini ta'minlaydi.

Axborot texnologiyalarini joriy qilishning asosiy mezoni har bir insonning, har qanday bozor munosabatida va davlat boshqaruvida yo'naltirilgan bo'lishidan iborat. Axborot texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladigan, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishga ega bo'lgan axborot tizimini o'z ichiga oladi. Axborot texnologiyasi — axborot resurslarining ishonchliligi va tezkorligini ta'minlovchi, ulardan foydalanish xarajatlarining kamayishini ta'minlovchi usul, ishlab chiqarish jarayoni va dasturiy texnik vositalarini yagona texnologik zanjirga birlashtirgan holda axborotlarni yig'ish, qayta ishslash, saqlash va uzatish jarayonidir. Axborot tizimlari va texnologiyalari yildan-yilga kishilik faoliyatining turli

sohalarida yanada keng qo'llanilib borilmoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo'llashdan maqsad — jamiyat va insonning butun havot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarini hal etishdir.

Iqtisodiy mutaxasisliklar bo'yicha ta'lirn olayotgan talaba larning davr talabiga javob bera oladigan yetuk mutahassis, komil inson bo'lib tarbiyalanishlarida, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishda, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etishda hamda ulardan foydalanishda, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-extiyojlarini yanada to'liqroq qondirishda, jahon axborot hamjamiatiga kirishda hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishda „Axborotlar texnologiyalari va tizimlari" fanini o'qitish katta ahamiyatga egadir.

- axborotlashtirish, axborotlashgan jamiyat, axborot infrastrukturasining tarkibini o'rganish;
- axborot, axborot texnologiyasi, axborot tizimi va ularning tuzilishi, turkumlanishini o'rganish;
- axborot texnologiyasini yaratish tamoyillarini aniqlash;
- axborot texnologiyasining rivojlanish bosqichlarini belgilash;
- iqtisodiy obyektni tizim sifatida asoslash;
- boshqaruv tizimining kibernetik modeli;
- axborot texnologiyasining konseptual, funksional va dinamik modeli bilan tanishish;
- axborot tizimlari evolutsiyasini belgilash;
- axborot tizimlarining axborot, dasturiy, texnik va texnologik ta'minotlarini o'rganish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, elektron axborot oqimlari, masofali o'qitish tizimi, multimedya texnologiyasi, elektron tijorat tizimini o'rganish.

Yangi XXI asrda mamlakatlarning milliy iqtisodi globallashib, axborotlashgan iqtisod shakliga aylanmoqda. Ya'ni milliy iqtisoddagi axborot va bilimlarning

tutgan o'rni tobora yuksalmoqda va ular strategik resursga aylangan. Dunyoda jamg'arilgan axborot va bilimlarning 90 % i so'nggi 30 yil mobaynida yaratilgan. Axborot va bilimlar hajmining kundan-kunga ortib borishi milliy iqtisodning barcha sohalarida. jumladan, ta 'limda ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalaridan keng ko'lamda samarali foydalanishni talab etmoqda. Axborot, kompyuterlashtirish, hisoblash texnikasi, zamonaviy axborot texnologiyasi, modellash, m a'lumotlar manbayi, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta'minlash va boshqa shu kabi ilmiv tushunchalar jamiyatni axborotlashtirishning eng muhim xususiyatlarini ifoda etadi. Axborot — ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy fanlaming, tafakkur ilmining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bilim va ma'lumotlar, kishilarning amaliy faoliyati davomida to'plagan tajribalari majmuyi demakdir. Inson axborot oqimi ichra yasharekan, turli-tuman voqealari, hodisalar va jarayonlarning bir-biriga aloqadorligini, o'zaro munosabati mohiyatini tahlil etish, mushohada va mulohaza qilib ko'rish niaqsadida ko'pdan ko'p dalil va raqamlarga murojaat qiladi. Axborot tufayli nazariv bilimlar amaliyot bilan birlashadi. Hozirgi zamon fan tcxnika taraqqiyoti axborot oqimining juda ham kengayishiga olib keldi. Axborot oqimining tobora kengavib borayotganidan slni narsa ham dalolal bera oladiki, o'tgan asrning 70-yillari o'rtalariga kelib oqilona foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishni jadallashtirish uchun yiliyM 10" arilinctik amalni bajarish kerak bo'ladi. Tabiiyki. bunday murakkab hisob kitobni cho't qoqib amalga oshirib bo'lmaydi. 10 milliard kishi Ini yil davomida tinmay ishlagan taqdirdagina sluinchay arilinctik amalni yecha olishi mumkin.

Axborot madaniyati deganda — jamiyat a 'zolarining axborotdan maqsadli foydalanish, axborotni qayta ishlash va uzatish, zamonaviy texniktashkiliy vositalardan va usullardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi tushuniladi. Axborotlashgan jamiyat quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- texnik qurilmalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'z faoliyatida kompyuter, axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- turli manbalardan axborotni olishni bilish va undan samarali foydalanish;
- axborotni tahliliy qayta ishlash asoslarini egallash;
- o'z faoliyatiga taalluqii axborotni bilish va u bilan ishlashni uddalash.

Axborotlashgan jamiyatning shakllanish va takomillashish muammolariga bag'ishlangan chet el va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlari salmog'i oz em

Axborot texnologiyasi — axborotni to'plash, saqlash, izlash. unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar majmuyi. Axborot texnologiyalari industriyasining yuzaga kelishi ularning axborot jamiyatini yaralishni qanday ta'minlashiga bog'liq. Axborot texnologiyalari industriyasi axborot mahsulotlari va vositalarini ishlab chiqaradi hamda iste'molchilarga yetkazadi.

Hozirgi kunda nafaqat ta'lif sohasiga, balki milliy iqtisodning barcha tarmoqlariga: tijorat, biznes va boshqalarga zamonaviy axborot texnologiyalari keng ko'lamda kirib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiyalar texnologivalarining hayotimiz barcha jabhalariga kirib kelishi biznes va ta'limni yo'lga qo'vish mexanizmlarini tubdan o'zgartirib bormoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, jahon iqtisodiyo tining globallashib borayotganida Internet orqali ta'lim xizmatlarini taklit etish borasida mehnat bozorining hajmi cheksizdir. O'zbekistonda yuzaga kelgan vaziyat iqtisodiyotning rivojlanishini intensiv yo'lga o'tkazishni, resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanishni, ishlab chiqarishga tobora takomillashgan mehnat qurollarini joriy etishni juda ham muhim vazifa qilib qo'ymoqda. Bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekom munikatsiyalar tarmoqlarini, ma'lumotlar uzatishni, Internet xizmatlariga kirib borishni va zamonaviylashtirish respublikamizda ustuvor o'rirlarga chiqmoqda. Iqtidorli voshlar ishtirotida respublikada Internet-festivallar. Internet-forumlar o'tkazish odad bo'lib qoldi, shaharlar va qishloqlarda Internet tarmog'idan jamoa bo'lib foydalanish punktlarining soni tabora ko'paymoqda, axborot xizmatlari turlari sezilarli darajada kengaymoqda ularning xizmatlari yanada intellektualroq bo'lib bormoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun maxsus "Kompyuterlashtirishni va axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi "Kengash" tashkil etildi. Kengashga muvofiq telekommunikatsiyalar va ma'lumotlar uzatishning milliy tarmog'ini rivojlantirish; davlat boshqaruviga elektron texnologiyalarni joriy etish; elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni tayyorlash topshirildi. Prezident Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi va kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturini tasdiqladi. Unda telekommunikatsiyalar va m a'lumatlar uzatishni rivojlantirish, axborot resurslaridan foydalanish, Internet tarmog'ida o'z saytlarini yaratishning maqsadli yo'nalishlari belgilandi. Iqtisodiyot tarmoqlari va jamiyatning axborotni tezkor ayriboshlashga, jahon axborot resurslariga kirib borishga bo'lgan yuqori ehtiyoji, ta'lim jarayonlarini va kishilarning kundalik turmushini kompyuterlashtirish zaruriyati, slumingdek, axborot va m a'lumatlar bazasi tashkil etilishini ta'minlash ehtiyoji ushbu muhim qarorlarning qabul qilinishi uchun asos bo'ldi. Shunday qilib, odamlarni ijtimoiy-iqtisodiy va m a'naviy muammolarni hal etishga safarbar qilmoq uchun tegishli axborotni o'z vaqtida to'plab, qayta ishlab, muayyan bir tartibga solish va zudlik bilan kishilarga yelkazish kerak bo'ladi. Buning uchun jamiyatni axborotlashtirish dasturini amalga oshirish va ilg'or axborot texnologiyasini joriy etish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining „Axborotlashtirish to 'g'risida“gi Qonuni. G 'G ' „Xalq so'zi“, 2004-yil 11-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasining „Elektron hujjat aylanishi to'g'risida“ gi Qonuni. G 'G ' „Xalq so'zi“, 2004-yil 30-aprel.
3. O 'zbekiston Respublikasining „Elektron tijorat to 'g 'risida"gi Qonuni, G 'G ' „Xalq so'zi“, 2004-yil 21-may.
4. O'zbekiston Respublikasining „Elektron raqamli imzo to'g'risida" gi Q onuni, G 'G ' „Xalq so'zi“, 2003-yil 12-dekabr.
5. „B arkam ol avlod yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining Farmoyishi. 2009-yil 9-dekabr. G 'G ' Xalq so'zi. № 238. 2009-yil 10-dekabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g ‘risida“gi Qarori. G 'G ' „Xalq so'zi", 2005-yil 3-iyun.